

## YUNON VA TURKIY ADABIYOTIDA QAHRAMONLIK EPOSI

**Ma'rufova Kamolaxon**

*Farg'ona davlat universiteti*

*Filologiya fakulteti filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi*

*1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Turkiy va yunon adabiyotida qahramonlik eposi mavzusi xalqlarning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari va ideal qahramon haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi. Turkiy adabiyotda Alpomish, Manas kabi eposlarda xalq erki, vatan himoyasi, mardlik va sadoqat asosiy g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Yunon adabiyotida esa Iliad va Odyssey qahramonlik eposining yuksak namunasi bo'lib, ularda jasorat, sharaf, taqdir va inson irodasi masalalari yoritiladi. Ushbu mavzuni o'rganish orqali ikki xalq adabiyotidagi umumiy va o'ziga xos jihatlar, qahramon obrazining badiiy talqini hamda eposlarning tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Qahramonlik eposi, shon sharaf, xalq og'zaki ijodi, qahramonlik obrazi, ma'naviy qadriyatlar, kleos, demigod.

**Abstract:** The theme of heroic epic in Turkic and Greek literature reflects the historical memory, spiritual values, and ideals of heroism of different peoples. In Turkic literature, epics such as Alpomish emphasize national freedom, bravery, loyalty, and the defense of the homeland. In Greek literature, Iliad and Odyssey are among the greatest examples of heroic epic poetry, portraying courage, honor, fate, and human determination. The study of this topic makes it possible to identify both common and distinctive features of these literary traditions, to analyze the artistic interpretation of the heroic figure, and to reveal the educational and cultural significance of heroic epics.

**Keywords:** heroic epic, glory and honor, oral folk literature, heroic image, spiritual values, kleos, demigod.

Hamamiz bilamizki, har bir xalqning birligi, mustaqilligi va qahramonliklarini madh etuvchi, ulug'lovchi, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va mardlikka chorlovchi qahramonlik eposlari, ya'ni dostonlari mavjud. Ular ana shu xalqning shakllanishi, qadimiy urf-odatlarini, kundalik hayot tarzini o'zida aks ettiradi. Har bir qahramonlik dostonida xalq taqdiri hal bo'ladigan davrlarda yuzaga kelib, markazida o'z millati uchun kurashuvchi alp (pahlavon) turadi.

Qahramonlik eposlarining o'ziga xos bir qancha xususiyatlari mavjud. Eng birinchi o'rinda dostonning mavzusiga e'tibor qaratishimiz zarur. Mavzuda Vatan mudofaasi, yurt birligi, tashqi dushmanlarga qarshi kurash asosiy g'oyabi tashkil qiladi. Bundan tashqari alplarning mo'jizaviy ravishda tug'ilishi, g'ayritabiiy kuchga ega ekanligi, shu bilan birga yurt tinchligi uchun kurashishi alohida ahamiyatga ega. Asarni tashkil etuvchi jang sahnalari,

uylanish motivlari, maqsadga eltuvchi tilsimlar, sadoqat va do'stlik uning yanada boyishiga xizmat qiladi.

Xalq og'zaki ijodida, xususan, o'zbek millatida ham qahramonlik eposlari alohida o'rin tutadi. Misol sifatida "Alpomish" dostonini olsak. U o'zbek xalqining eng yorqin qahramonlik dostoni bo'lib, hozirgi kungacha mardlik va vafi timsoli bo'lib kelmoqda. Alpomishning yovlarga qarshi kurashi, o'z xalqining taqdiriga befarq bo'lmaganligi, hattoki o'sha davr ayollarining Oybarchidek mard va jasur, yoriga sadoqatli ekani tahsinga sazovor.

Turkiy adabiyotlar singari yunon xalq og'zaki ijodida ham qahramonlik eposlari alohida o'rin egallaydi. Ammo turkiy hamda yunon eposlari orasida ko'plab farqli jihatlar mavjud. Masalan, turkiy adabiyotda asosiy obraz inson, ya'ni alohida shaxs sifatida tasvirlansa, yunon adabiyotida xudolar misolida yoritiladi ( Zevs, Afina, Paseydon shular jumlasidan). Asarda qahramonlar ko'pincha xudolarning farzandlari (demigodlar) bo'lib, ular ham g'ayritabiiy kuchga ega bo'lishadi. Shu bilan bir qatorda yunon mifologiyasida shon-shuhrat (kleos) eng muhim motiv hisoblanadi. Chunki qahramon uchun eng oliy maqsad jang maydonida halok bo'lsa ham o'zidan o'lmas nom qoldirishdir. Yunon qahramonlari o'zining muqarrar o'limini ya'ni taqdirini bilsa-da, mardlarcha kurashadi. Bundan tashqari Homerning "Illiada va Odisseya" dostonlarida qahramonlikning klassik namunalari ( Axillesning jasorati, Odisseyning aqli) tasvirlanadi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, turkiy va yunon adabiyotidagi qahramonlik eposlari xalqning tarixiy xotirasi, orzu-intilishlari va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. "Alpomish", "Illiada va Odisseya" asarlarida qahramon obrazi orqali jasorat, vatanparvarlik, sadoqat va sharaf kabi fazilatlar ulug'lanadi. Bu eposlar turli xalqlarga mansub bo'lsa-da, ularni birlashtirib turadigan asosiy jihat — insonning ezgulik va adolat yo'lida kurashi hisoblanadi. Shu bois qahramonlik eposlari nafaqat badiiy meros, balki yosh avlodni tarbiyalashda muhim ma'naviy manba sifatida ham katta ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Nasimxon Rahmonov „O'zbek adabiyoti tarixi” ( *Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha*) o'quv qo'llanma T., 2017
2. Ziyo.com
3. Arxiv.uz
4. Oxunjon Safarov „ O'zbek xalq og'zaki ijodi ” T., 2010